

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12. I.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BOJXONA QO‘MITASINING BOJXONA INSTITUTI

RAXMONOVA NARGIZA RASHIDOVNA

TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA CHEGARA BOJXONA
POSTLARI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economic sciences**

Raxmonova Nargiza Rashidovna

Tashqi savdoni rivojlantirishda chegara bojxona postlari boshqaruvini
takomillashtirish..... 3

Рахмонова Наргиза Рашидовна

Совершенствование управления пограничными таможенными постами в
развитии внешней торговли 25

Raxmonova Nargiza Rashidovna

Improving the Management of Border Customs Posts in the Development of Foreign
Trade..... 51

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 57

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12. I.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
BOJXONA QO‘MITASINING BOJXONA INSTITUTI

RAXMONOVA NARGIZA RASHIDOVNA

TASHQI SAVDONI RIVOJLANTIRISHDA CHEGARA BOJXONA
POSTLARI BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 – Menejment

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Iqt4592 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Bojxona qo'mitasining Bojxona institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ttysi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Shadmankulov Anvar Ablakulovich
iqtisod fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Baxtiyorov Bobur Baxodir o'g'li
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tursunov Bobir Ortiqmirzayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.1.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 18 sentabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil:100066, Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5- uy. Tel.: (998 55) 512-66-11. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@ttysi.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (312 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:100066, Yakkasaroy tumani, Shohjaxon ko'chasi, 5- uy. Tel.: (998 55) 512-66-11. Faks: (99871) 239-43-51. e-mail: info@ttysi.uz.


Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "05" 09 kuni tarqatildi.

(2026-yil "05" 09 dagi 4 - raqamli reyestr bayonnomasi).




B.V. Nasimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,
professor


S.N. Yuldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, iqtisod fanlari nomzodi,
dotsent


A.U. Burxanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda tashqi savdo hajmining izchil ortishi chegara bojxona postlariga tushayotgan yuklamaning ko'payishiga, bu esa mavjud boshqaruv tizimlarining moslashuvchanligi, resurslardan foydalanish samaradorligi va boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda. Jahon savdo tashkiloti (WTO) ma'lumotlariga ko'ra, "2025-yilda jahon tovarlar eksporti qiymati 26,26 trln AQSh dollarini tashkil etib, 2024-yilga nisbatan 7,0 %ga o'sgan"¹. Bu esa xalqaro tovar ayirboshlash hajmining kengayib borayotganini va chegara bojxona infratuzilmasiga bo'lgan talabning izchil oshib borayotganini ko'rsatadi. Mazkur sharoitda AQSh, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Gruziya kabi davlatlarda avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatiga raqamli texnologiyalar, intellektual bojxona nazorati, oldindan axborot almashinuvi hamda xavflarni boshqarishga asoslangan innovatsion boshqaruv yondashuvlarining keng joriy etilishi yuqori amaliy samaradorlikni ta'minlamoqda. Mazkur ilg'or tajribalar avtomobil chegara bojxona postlarida boshqaruv jarayonlarini strategik, taktik va operativ darajalarda muvofiqlashtirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda menejmentning zamonaviy usul va vositalarini keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon mamlakatlari chegaralaridagi boshqaruv jarayonlarini, jumladan, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarining o'tkazilish tezligi, soddaligi va undagi byurokratik to'siqlarni ko'plab olimlar, tadqiqotchilar hamda xalqaro tashkilotlar o'rganadi. Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti, Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi shular jumlasidandir. AChBPlaridagi jarayonlarni yanada soddalashtirish, tezlashtirish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish orqali tashqi savdoga ko'maklashish maqsadida chegara boshqaruviga oid tavsiyalar ishlab chiqish bu boradagi ilmiy-tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda amaldagi "O'zbekiston - 2030" strategiyasi² doirasida avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirish, ulardagi ish yuklarni kamaytirish, o'tkazuvchanlik qobiliyatini yanada oshirish, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining vaqt va moliyaviy xarajatlarini qisqartirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Shu bilan birga, bojxona ma'murchiligini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, avtomobil chegara bojxona postlarini zamonaviy menejment yondashuvlari asosida boshqarishni takomillashtirish, ular faoliyatining

¹ World Trade Organization. Global Trade Outlook and Statistics. March, 2026. URL: https://www.wto.org/english/res_e/booksp_e/gtos0326_e.pdf

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni 1-ilovasi. Manba: <https://www.lex.uz/uz/docs/-8050769>

tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini rivojlantirish, raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish hamda chegara bojxona postlari boshqaruvining nazariy-uslubiy asoslarini yanada rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon Bojxona tashkilotining “Jahonda savdoni yengillashtirish va xavfsizlikni ta’minlashning hadli standartlari” (2005-yil iyunda qabul qilingan), O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 21-dekabrdagi “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va uyg‘unlashtirish to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyaga (Kioto, 1973-yil 18-may, 1999-yil 26-iyunda qabul qilingan o‘zgartirishlar bilan) O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi O‘RQ-654-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Bojxona kodeksi” (2016-y., yangi tahriri), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2022-yil 6-apreldagi “Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-97-son, 2022-yil 27-apreldagi “Bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-122-son Farmonlari, 2025-yil 25-martdagi “Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-122-son Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tashqi savdoni rivojlantirishda chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirish yo‘nalishida xorijlik mutaxassis-olimlar tomonidan bir qator ilmiy asoslangan g‘oyalar ilgari surilgan. Xususan, A.Fayol, F. Teylor, F. Lyutans, M.Polner, J.Maklinden, A.Z.Durrani, E.Doychmann, L.Gabrielli, E.Rekkilar³ avtomobil chegara bojxona postlari o‘tkazuvchanligiga ta’sir etuvchi omillar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Shuningdek, Jahon savdo tashkiloti, Jahon bojxona tashkiloti, Jahon Banki kabi tashkilotlarning ekspertlari tomonidan avtomobil chegara bojxona postlari samaradorligi masalalari o‘rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan A.R.Gladkov, M.V.Boykova,

³ Fayol H. General and Industrial Management / translated from the French by C. Storrs. - London: Sir Isaac Pitman & Sons, 1949. - 110 p.; F.W.Taylor. The Principles of Scientific Management. New York; London: Harper & Brothers, 1911.; F.Luthans. The contingency theory of management. A path out of the jungle // Business Horizons. - 1973. - Vol. 16, No. 3. - P. 67-72; Polner M. Coordinated border management: from theory to practice, article on the WC Journal; Maklinden J., Durrani A.Z. Customs administration Corruotion in customs, article on the WCJ, 2013; E.Doychmann, L.Gabrielli, E.Rekki. Roads, rails, and checkpoints: Assessing the permeability of nation-state borders worldwid; WCO. Coordinated border management: An inclusive approach for connecting Stakeholdders, 2015;

T.S.Nenadishina o'z tadqiqotlarida chegaralarni samarali boshqarish orqali ularning o'tkazuvchanligini oshirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. O.Bobrova, A.Kojankov, D.Kovoryakovskiy, S.Shoxinlar avtomobil chegara bojxona postlarini raqamli boshqarish masalalariga ko'proq e'tibor qaratganlar⁴.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari B.V. Nasimov, Q.X.Abdurahmonov, R.A.Alimov, A.U.Burxanov, M.B.Bekmurodov, R.A.Isayev, G.R.Madraximova, S.A.Alimbaev, D.N.Sharipova, E.Nigmanov, U.Yuldashevalarning ilmiy ishlari orqali menejmentning usullari, funksiyalari va ularni qo'llashga oid jihatlar, tashkilotlarni boshqarish strategiyalari o'rganilgan⁵. A.Saidov, A.Nazarov, Z.V.Muydinova, R.R.Nazarova, N.Asqarovlar va boshqalarning ilmiy-tadqiqot ishlarida avtomobil chegara bojxona postlarini boshqarishning ayrim jihatlarini, asosan "E-tranzit" axborot tizimi hamda xavfni boshqarish tizimlarini qo'llash istiqbollari, bojxona chegarasi orqali harakatlanadigan jismoniy shaxslarga tegishli tovarlar hisobi, undiriladigan bojxona to'lovlari o'rganilgan⁶.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi boshqaruv samaradorligining ayrim jihatlarini (asosan, nazariy-uslubiy masalalar, tashqi iqtisodiy faoliyatning alohida yo'nalishlari) qamrab olgan. Ayrim avtomobil chegara bojxona postlari misolida boshqaruv samaradorligini oshirishning kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish mexanizmlari va ularni baholash mezonlari masalalari esa yetarli darajada batafsil yoritilmagan, shuningdek, O'zbekistondagi avtomobil chegara bojxona postlarida boshqaruvni takomillashtirish masalalari mustaqil tadqiqot obyekti sifatida o'rganilgan. Mazkur dissertatsiya aynan shu ilmiy-amaliy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan. Yuqorida bayon qilingan holat tadqiqot mavzusini tanlashga va uning maqsadini aniqlashga imkon beradi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur

⁴ А.Р.Гладков. Совершенствование механизмов формирования и применения предварительных решений в ТК. дисс. на соис уч. ст. к.э.н., РТА, Люберсы - 2018; М.В.Бойкова. Зарубежный опыт таможенного администрирования. М.: РИО РТА, 2017. 130 с., ISBN 978-5-9590-0935-9; Т.С.Ненадышина. Упрощение процедур торговли РФ в целях обеспечения внешнеторговых интересов / дисс. на соис. уч. степ. д.э.н. РТА, Люберсы - 2022; О.Боброва., А.Кожанков., Д.Коворяковский., Т.Ненадышина., С.Шохин. Скоординированное управление границей: международные стандарты и правоприменительная практика. монография. М.:Прометей, 2017,-192 с.

⁵ B.V.Nasimov. Paxta-to'qimachilik klasterlari korxonalarida ishlab chiqarish zahiralarni boshqarish metodologiyasini takomillashtirish. diss. avtoref. DSc: 08.00.13. - Toshkent, 2023; Q.X.Abdurahmonov. Inson resurslarini boshqarish. darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2019; R.A.Alimov. Tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqarish. Darslik. T.: O'qituvchi, 2017; A.U.Burxanov. Korporativ boshqaruv va investitsiyalar samaradorligi. Monografiya. T.: Iqtisodiyot, 2020; M.B.Bekmurodov. Ijtimoiy tizimlarda boshqaruv samaradorligi masalalari. Jamiyat va boshqaruv. 2019. №2; R.A.Isayev. Sanoat korxonalarining sifat menejmenti tizimi va strategik boshqarish integratsiyalashgan tizimining axborot ta'minoti. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021.; G.R.Madraximova. To'qimachilik sanoatini iqtisodiy rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish. DSc il. d. olish yozilgan diss. avtoreferati. - Toshkent, 2024; S.A.Alimbaev, D.N.Sharipova. Bojxona menejmenti. O'quv qo'llanma. Toshkent-2010; E.Nigmanov, U.Yuldasheva. Таможенный менеджмент. учебник. Ташкент-2023;

⁶ A.Saidov. E-tranzit. Uslubiy qo'llanma, BI, Toshkent-2022-yil; A.Navzarov. Chegara bojxona postlarida moliyaviy riskni minimallashtirish istiqbollari. PhD diss. 2023-yil. UDK:339.543:351.814.1(575.1); Z.V.Muydinova. Chegara bojxona postlari orqali harakatlanayotgan jismoniy shaxslar tovarlari iqtisodiy tahlilini takomillashtirish. PhD diss. 2026-yil; P.P.Nazarova. Управление ВЭД в Узбекистане на основе Инновационного развития в условиях глобализации. Автореферат дисс. учен. ст. д.э.н.; N.Asqarov. O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo va bojxona sohalarni uyg'un boshqarishning tashkiliy-iq mexanizmlarini takomillashtirish. i.f.n. dis. ADU. - A.: 2014.

dissertatsiya tadqiqoti Bojxona institutining ilmiy-tadqiqot ishlariga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tashqi savdoni rivojlantirishda chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvining nazariy asoslarini o'rganish;

avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvining maqsadi va konseptual klassifikatsiyasini aniqlash;

avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruviga oid xorijiy tajribalarni tahlil qilish, ularning muvaffaqiyatli yondashuvlarini O'zbekiston sharoitida qo'llashni asoslash hamda joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

O'zbekistonda avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatining amaldagi holatini tahlil qilish va mavjud muammolarni tizimlashtirish;

avtomobil chegara bojxona postlari o'tkazuvchanligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellar asosida baholash;

avtomobil chegara bojxona postlari toifalarini o'zgartirish asosida resurslardan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash;

avtomobil chegara bojxona postlarini rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari va prognoz ko'rsatkichlarini aniqlash hamda ulardan boshqaruv qarorlarini qabul qilishda foydalanish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruv tizimini raqamlashtirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

tashqi savdoni rivojlantirishda avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvi samaradorligini oshirish bo'yicha kompleks boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun amaliy takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tasarrufidagi avtomobil chegara bojxona postlarining boshqaruv faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvi jarayonida vujudga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotni amalga oshirishda tizimli va qiyosiy tahlil, ekspert baholash, iqtisodiy-statistik tahlil, ma'lumotlarni yig'ish, guruhlash, ko'p omilli ekonometrik modellashtirish, prognozlashtirish va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tovarlarni eksportga rasmiylashtirish jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida "bir marotaba ma'lumot kiritish" tamoyiliga asoslangan, tashqi savdo shartnomasi ma'lumotlari asosida eksport deklaratsiyasini avtomatik shakllantirib, bojxona nazoratini avtomobil chegara bojxona postlarida amalga oshirishni nazarda tutuvchi integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmini ishlab chiqish taklif etilgan;

avtomobil chegara bojxona postlarining o'tkazuvchanlik salohiyatiga ta'sir etuvchi transport oqimi, yo'lovchilar qatnovi, inson resurslari hamda texnik vositalar

o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholovchi ko‘p omilli ekonometrik model asosida postlar resurslarini maqbullashtirish, xodimlar tarkibini yuklama darajasiga mos ravishda shakllantirish va postlar toifalarini differensial boshqarish taklif etilgan;

avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatini strategik boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha transport oqimlarining o‘shish tendensiyalari prognoz ko‘rsatkichlari aniqlanib, ular asosida bojxona infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat ko‘rsatish quvvatlarini rejalashtirish taklif etilgan;

tashqi savdo yuklari to‘g‘risida tranzit deklaratsiyasi orqali oldindan taqdim etilgan ma’lumotlarni tovar bojxona hududiga yetib kelgunga qadar tahlil qilish hamda bojxona nazorat choralarini oldindan belgilash imkonini beruvchi AChBPlarida tranzit jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirish taklif etilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

avtomobil chegara bojxona postlarini qurish va rekonstruksiya qilish jarayonlarida transport vositalari oqimining prognoz ko‘rsatkichlarini aniqlash asosida bojxona infratuzilmasi quvvatlarini rejalashtirish va rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan;

tashqi savdo ishtirokchilari ma’lumotlarini bir marta kiritish va ulardan bojxona rasmiylashtiruvining keyingi bosqichlarida takroriy foydalanish bo‘yicha amaliy yechimlar ishlab chiqilgan;

avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatini ko‘p omilli ekonometrik tahlil qilish natijalari asosida bojxona xodimlari shtat birliklarini optimal taqsimlash hamda inson resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

bojxona rasmiylashtiruv bosqichlarini qisqartirish, tartib-taomillarni soddalashtirish va tranzit jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida “Tranzit deklaratsiyasini to‘ldirish tartibi”ni ishlab chiqish hamda takomillashtirishda tadqiqot natijalaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan yondashuv, usul va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlaridan olinganligi, keltirilgan tahlillar va olib borilgan hisob-kitoblarning matematik-statistika va ekonometrika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, boshqaruv samaradorligini baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning ilmiy-uslubiy ta’minotini rivojlantirishga qaratilgan xulosa hamda takliflar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalaridan avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirishga oid ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirishda, boshqaruv nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishda, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi ilmiy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish, avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatini tahlil qilish, qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish, iqtisodiy oliy o'quv yurtlari o'quv rejasidagi "Bojxona menejmenti", "Bojxona to'lovlari" va shu kabi fanlardan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tashqi savdoni rivojlantirishda chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy takliflar va tavsiyalar asosida:

tovarlarni eksportga rasmiylashtirish jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida "bir marotaba ma'lumot kiritish" tamoyiliga asoslangan, tashqi savdo shartnomasi ma'lumotlari asosida eksport deklaratsiyasini avtomatik shakllantirib, bojxona nazoratini avtomobil chegara bojxona postlarida amalga oshirishni nazarda tutuvchi integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy boshqaruv mexanizmiga oid taklifi "Eksport uch qadamda" loyihasini ishlab chiqishda foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 26-yanvardagi 8/25-25-005-son ma'lumotnomasi*). Mazkur taklif eksport jarayonlarida takrorlanuvchi ma'lumotlarni qayta kiritish holatlarini bartaraf etish, biznes-jarayonlarni boshqarish samaradorligini oshirish, rasmiylashtirish bosqichlarini 9 tadan 3 tagacha qisqartirish hamda eksportyorlarning yillik xarajatlarini o'rtacha 75 mlrd so'mga kamaytirishga xizmat qilgan;

avtomobil chegara bojxona postlarining o'tkazuvchanlik salohiyatiga ta'sir etuvchi transport oqimi, yo'lovchilar harakati, inson resurslari va texnik vositalar o'rtasidagi bog'liqlikni baholovchi ko'p omilli ekonometrik model asosida postlar resurslarini maqbullashtirish, xodimlar tarkibini yuklama darajasiga mos ravishda shakllantirish va postlar toifalarini differensial boshqarishga oid ishlab chiqilgan taklifi AChBPlari tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish jarayonida qo'llanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 26-yanvardagi 8/25-25-005-son ma'lumotnomasi*). Natijada, "Rishton", "Andarxon" va "Qarshi-Kerki" AChBPlarining toifalari yuklama darajasidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqilgan, inson resurslari va bojxona nazoratining texnik vositalardan foydalanish samaradorligi oshirilgan, shtat birliklari maqbullashtirilgan hamda resurslardan oqilona foydalanish hisobiga boshqaruv xarajatlari 1,2 foizga qisqartirilgan;

avtomobil chegara bojxona postlari faoliyatini strategik boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida 2030-yilgacha transport oqimlarining o'sish tendensiyalari prognoz ko'rsatkichlari aniqlanib, ular asosida bojxona infratuzilmasini rivojlantirish va xizmat ko'rsatish quvvatlarini rejalashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklifdan Qoraqalpog'iston Respublikasi bojxona boshqarmasining "Dout-ota" AChBPni rekonstruksiya qilish va modernizatsiyalash jarayonida foydalanilgan (*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 26-yanvardagi 8/25-25-005-son ma'lumotnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida postning

infratuzilma quvvatlarini aniqlash va rivojlantirish bo'yicha boshqaruv qarorlarini asoslash imkoniyati yaratilgan hamda "Dout-ota" AChBPining o'tkazuvchanlik salohiyati 4 foizga oshirilgan;

tashqi savdo yuklari to'g'risida tranzit deklaratsiyasi orqali oldindan taqdim etilgan ma'lumotlarni tovar bojxona hududiga yetib kelgunga qadar tahlil qilish hamda bojxona nazorat choralarini oldindan belgilash imkonini beruvchi AChBPlarida tranzit jarayonlarini boshqarish tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 31-avgustda 3382-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Tranzit deklaratsiyasini to'ldirish, rasmiylashtirish, unga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish, uni qaytarib olish hamda bekor qilish tartibi to'g'risidagi nizom"da o'z aksini topgan (*O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2025-yil 26-yanvardagi 8/25-25-005-son ma'lumotnomasi*). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tashqi savdo yuklari bo'yicha ma'lumotlarni oldindan tahlil qilish imkoniyati kengaygan, bojxona nazorat shakllarini transport vositasi chegaraga yetib kelguniga qadar belgilash hamda nazorat jarayonlarini tezkor tashkil etish imkoniyati yaratilgan, natijada transport vositalarining AChBPlarida turib qolish vaqti 1,3 foizga qisqartirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta (shu jumladan, 3 ta respublika va 3 ta xalqaro) ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha tadqiqotlar sharhi keltirilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishiga doir ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Tashqi savdoni rivojlantirishda avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvining ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlanib, unda AChBPlari boshqaruvining mazmun-mohiyati, postlardagi tartib-taomillar va ularni menejment funksiyalari asosida tartibga solish, AChBPlaridagi boshqarish masalasi zamonaviy menejment nuqtayi nazaridan ko'rib chiqildi. Tadqiqot davomida ushbu tizimning nazariy asoslari, boshqaruvning maqsad va turlari hamda

xorijiy mamlakatlarda chegara boshqaruviga oid tendensiyalar va amaliyotlar tahlil qilinib, muvaffaqiyatli yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyati asoslanib, xorijiy tajribani joriy etish yuzasidan tavsiyalar berilgan. Shuningdek, chegara boshqaruvining hozirgi holati va uni rivojlantirish istiqbollari, uslubiy jihatlarini takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda bojxona ma‘murchiligini takomillashtirish natijasida tadbirkorlik sohasida ham qulayliklar yaratildi. Shu jumladan, 2025-yilda import yo‘nalishidagi tovarlarning 53 %, eksport yo‘nalishidagi tovarlarning 91 %i tovarlar bojxona ko‘rigidan ozod qilindi, hujjatlarning elektron tarzda taqdim etish hisssasi 99,6 %ga yetdi, bojxona organlarining elektron axborot tizimlaridan ma‘lumot olish, qayta ishlash va ulardan foydalanish darajasi yuqorilashdi⁷.

AChBPlaridagi boshqaruv bilan bog‘liq mavjud muammolar ushbu yo‘nalishda tadqiqotlar zarurligini ko‘rsatadi. AChBPlari bugungi kunda nafaqat nazorat o‘tkazish punkti, balki tashqi savdo jarayonlarining muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ularning samarali ishlashi eksport-import operatsiyalarining tezligi, logistika tizimining uzluksizligi va umumiy tashqi savdoga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu tizimni faqat ma‘muriy nazorat nuqtasi emas, balki boshqaruv tizimi sifatida ko‘rib chiqish zarurati yuzaga keladi.

Transport oqimlarining keskin ortishi, logistika zanjirlarining murakkablashuvi va tashqi savdo hajmining oshishi, xizmat ko‘rsatish vaqtining cho‘zilishi va navbatlarning yuzaga kelishi AChBPlarda boshqaruv tizimini qayta ko‘rib chiqishni talab etmoqda. Tadqiqot davomida zamonaviy menejment nazariyalari asosida AChBPlarini boshqarishga nisbatan yangicha yondashuv zarurligi asoslandi. Xususan, jarayonlarga yo‘naltirilgan boshqaruv hamda xavfga asoslangan boshqaruv konsepsiyalarining qo‘llanilishi ushbu tizim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi isbotlandi.

O‘zbekiston Respublikasida 2019-yildan boshlab bojxona chegaralari orqali harakatlanayotgan tovar va transport vositalari ustidan yalpi bojxona nazoratini o‘tkazish bekor qilindi va bojxona nazoratini xavf profillari asosida 4 ta, ya’ni qizil, sariq, ko‘k va yashil yo‘laklarga ajratilgan holda amalga oshirish amaliyoti joriy etildi. Natijada, 2021-yil yakuniga kelib, bojxona rasmiylashtiruv uchun sarflanayotgan vaqt eksportda 3 marta va importda 2,6 martaga qisqarishiga, bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida bojxona ko‘rigi hajmining 1,6 barobar kamayishiga erishildi⁸.


“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida milliy qonunchilikni Jahon savdo va Jahon bojxona tashkilotlarining standartlariga moslashtirish, bojxona rasmiylashtiruviga sarflanadigan vaqt va xarajatlarni kamaytirish, mavjud resurslarni optimal

⁷ A.A.Shadmankulov. Bojxona ma‘murchiligining ayrim nazariy jihatlar hamda xorijiy tajriba// “Iqtisodiy islohotlar jarayonida O‘zbekistonda bojxona ma‘murchiligini takomillashtirish istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. – Toshkent. BQ BI, 2026-y. 197 - b., 13-bet.

⁸ Ruzmetov X. O‘zbekiston Respublikasi bojxona organlarida xavfni boshqarish tizimining joriy etilish tendensiyasi va uning bugungi kundagi natijalari. // O‘zbekiston bojxona axborotnomasi. - 2-son, 2023-y. – B.

boshqarish, bojxona nazorati samaradorligini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat (TIF) qatnashchilarining vaqt va xarajatlarini qisqartirish kabi vazifalar belgilab berildi⁹.

AChBPni boshqarish faqat ma'muriy nazorat mexanizmlariga asoslanib qolmasdan, balki jarayonlarga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini joriy etishni talab etadi. Bunda asosiy e'tibor transport oqimlarini samarali tashkil etish, xizmat ko'rsatish, bojxona nazoratiga sarflanadigan vaqtini qisqartirish hamda resurslardan optimal foydalanishga qaratiladi. Shu bois, mazkur tadqiqotda boshqaruvning an'anaviy nazorat modelidan voz kechilib, xavfga asoslangan va natijadorlikka yo'naltirilgan konseptual model taklif etiladi (1-rasm).



1-rasm. AChBPni boshqarishning konseptual modeli¹⁰

Mazkur model AChBPni boshqarish jarayonini tizimli yondashuv asosida aks ettiradi. Modelda kirish omillari, boshqaruv qarorlari, xizmat jarayonlari, natijalar hamda samaradorlik ko'rsatkichlari o'zaro bog'liqlikda ifodalangan.


Ushbu sohada tadqiqotlar olib borgan iqtisodchi olimlarning chegara boshqaruvini takomillashtirishga qo'shgan hissalarini e'tirof etgan holda, fikrimizcha, tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tish jarayonlarini tartibga solishda zamonaviy menejmentning jarayonlarga yo'naltirilgan boshqaruv, xavfga asoslangan nazorat, raqamlashtirish va avtomatlashtirish, idoralararo integratsiya kabi boshqarishning asosiy yo'nalishlariga tayanish maqsadga muvofiq.

Jahon bojxona tashkilotining "Biznes jarayonlarini boshqarish bo'yicha yo'riqnoma"siga muvofiq, AChBP faoliyati uzluksiz biznes-jarayonlar majmui

⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-martdagi "“O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan asosiy yo'nalishlar bo'yicha islohotlarni amalga oshirishning 2024-yildagi ustuvor chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–109-son qarori. <https://lex.uz/docs/-6854841>

¹⁰ Jahon bojxona tashkilotining "Biznes jarayonlarini boshqarish bo'yicha yo'riqnoma"siga muvofiq muallif ishlanmasi.

sifatida boshqarilishi lozim. Ushbu xalqaro standartga ko‘ra, AChBP boshqaruvi uchta pog‘onada tashkil etiladi (2-rasm).



2-rasm. AChBPda boshqaruv iyerarxiyasi¹¹

JBT tavsiyalariga ko‘ra, boshqaruvning samaradorligi har bir jarayonning KPI (asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlari) bilan o‘lchash nazarda tutiladi. Shu bois, AChBP boshqaruvida KPIlarga asoslangan baholash tizimini joriy etish jarayonlarning kuchli va zaif jihatlarini aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini takomillashtirish imkonini beradi. Xalqaro amaliyotda mazkur yondashuvlar raqamlashtirish, riskka asoslangan boshqaruv va idoralararo hamkorlik kabi mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirilib, chegara jarayonlarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ilg‘or xorijiy tajribalarida “Koordinatsiyalashgan chegara boshqaruvi” (Coordinated Border Management) konsepsiyasi, “Yagona darcha” (Single Window), “Xavfni boshqarish” (Risk Management), “Qog‘ozsiz savdo” (Paperless trade) kabi yondashuvlar AChBPlarida boshqaruv jarayonlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rish mumkin. Ushbu yondashuvlar tashqi savdo bilan bog‘liq jarayonlar samaradorligining oshishi va xarajatlarning kamayishi orqali iqtisodiy o‘lishni rag‘batlantiradi.

Bob doirasida xorijiy mamlakatlarning chegara boshqaruvi tajribasi chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari rivojlangan davlatlarda chegara boshqaruvi integratsiyalashgan boshqaruv, xavflarni boshqarish, raqamlashtirish va idoralararo hamkorlik tamoyillari asosida tashkil etilganligini ko‘rsatdi.

Shu bilan birga, ularni to‘liq ko‘chirish emas, balki milliy sharoitga moslashtirish zarurligi asoslab berildi. O‘zbekiston sharoitida AChBPlarida boshqaruv tizimini takomillashtirish uchun xavfga asoslangan boshqaruvni kengaytirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish darajasini yanada oshirish, sun‘iy intellekt imkoniyatlaridan keng foydalanish, “yagona darcha” tizimini


¹¹ JBT, WCO Business Process Management (BPM). – Брюссель: БТО, 2018. – 114 с. asosida muallif ishlanmasi.

rivojlantirish hamda boshqaruv samaradorligini baholashda KPI tizimini joriy etish maqsadga muvofiq deb topildi.

Bob yakunida shunday fikrga kelindiki, AChBPlaridagi boshqaruv tizimi zamonaviy sharoitda faqat nazorat funksiyalariga tayanib qolmasdan, balki natijadorlikka yoʻnaltirilgan, moslashuvchan va maʼlumotlarga asoslangan boshqaruv modeliga oʻtishi zarur. Chegara boshqaruvi - bu qatʼiy reglamentlar va tezkor qaror qabul qilish sanʼatining uygʻunligidir. Tashqi savdoni ragʻbatlantirish va iqtisodiy oʻsishni taʼminlashda AChBPlarining institutsional va funksional roli yuqori. Ularning samarali faoliyati tashqi iqtisodiy faoliyatning qonuniyligi, xavfsizligi va iqtisodiy maqsadlarga mos ravishda amalga oshirilishini kafolatlaydi. Shu boisdan, ushbu postlarning boshqaruv tizimi, moddiy-texnik taʼminoti va kadrlar salohiyatini yanada rivojlantirish menejment nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, nazariy tahlillar AChBPlar faoliyatini zamonaviy menejment tamoyillari asosida boshqarish zarurligini koʻrsatdi. Mazkur nazariy yondashuvlarning amaliy holatini baholash maqsadida keyingi bobda Oʻzbekiston Respublikasi AChBPlari faoliyatining amaldagi holati va boshqaruv samaradorligi tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvining amaldagi holati va unda mavjud muammolar tahlili”** deb nomlanib, unda AChBP faoliyatining amaldagi holati tahlil qilinib, mavjud muammolar tizimlashtirildi. Shuningdek, AChBPlari oʻtkazuvchanligiga taʼsir etuvchi omillarning ekonometrik tahlili amalga oshirilib, postlar toifalarini optimallashtirish asosida resurslardan samarali foydalanish yoʻllari kabi masalalar tadqiq qilingan.



3-rasm. AChBPlarining ish hajmi yillar kesimida¹²

Oʻzbekistonning tashqi savdo hajmi hamda chegaradan oʻtadigan yoʻlovchilar soni yildan-yilga oshib borar ekan, AChBPlari orqali harakatlanadigan transport vositalarining soni ham koʻpaymoqda (3-rasm). Bu esa, chegara oʻtkazish punktlari


¹² Bojxona qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

ish hajmining keskin o'sishiga olib keladi. Bojxona tizimida foydalanilayotgan, hatto 5-10 yil avval barpo etilgan bojxona postlari ham zamonaviy talablar va texnologik rivojlanish sur'atlari nuqtayi nazaridan ma'naviy jihatdan eskirgan obyektlar sifatida baholanishi mumkin. Chunki ular bugungi kundagi hajmi uchun ancha kichkina va o'tkazuvchanlik qobiliyati kam bo'lganligi, xodimlarning yetishmovchiligi, bojxona nazoratining zamonaviy texnik vositalarining ozligi AChBPlarida tirbandliklarni keltirib chiqaradi.

3-rasmdan ko'rinadiki, 2024-yilda AChBP orqali harakatlangan transport vositalari soni 2018-yilga qaraganda deyarli 3 barobarga oshgan, chegarani kesib o'tgan yo'lovchilar esa 22 %ga oshgan. Ushbu postlarda bojxona nazoratidan o'tkazilgan tovarlar og'irligi ham 3 barobarga ortgan. AChBPlaridagi ish yuklamasining uzluksiz oshib borishi turli muammolarni keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot davomida o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, asosiy muammo boshqaruv jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq.

So'nggi yillarda ko'plab AChBPlari rekonstruksiya qilindi va tashqi savdo jarayonlari tezlashishiga erishildi. Jumladan, "Yallama" AChBP rekonstruksiya qilinishi, bojxona nazoratining eng zamonaviy texnik vositalari bilan ta'minlanishi natijasida chegaradan o'tishning o'rtacha vaqti 11,4 soatdan (2020-yil) 4,4 soatga (2021-yilda) qisqarganligi xalqaro ekspertlar tomonidan yuksak natija sifatida baholandi¹³.

Dissertatsiya doirasida AChBP faoliyatini samarali tashkil etish va boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish maqsadida resurslarni oqilona taqsimlash masalasi ham o'rganildi. Xususan, ayrim AChBPlarining ish yuklamasi yillar kesimida baholandi. Olingan natijalar ushbu postlarda ish hajmi va mavjud infratuzilma hamda inson resurslari o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatdi. AChBPlarini ularning real yuklamasidan kelib chiqib qayta toifalash taklifi asoslantirildi.



4-rasm. "Rishton" AChBP orqali harakatlangan yo'lovchilar va transport vositalari tahlili¹⁴

Xususan, 2017-yilda Farg'ona viloyatida Qirg'iziston Respublikasiga fuqarolarning piyoda harakatlanishlari uchun ochilgan 2-toifadagi "Rishton" AChBPda 2021-yildan yengil va yuk transport vositalarining harakati ham yo'lga

¹³ Sodeystvie transgranichnoy torgovle, <https://development.asia/insight/facilitating-cross-border-trade-yallama>

¹⁴ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

qo'yilishi bilan ushbu post orqali harakatlanadigan yo'lovchilar va transport vositalari soni keskin ortdi (4-rasm). Post tomonidan kunlik o'tkazilgan transport vositalari soni so'nggi 7 yilda deyarli 8 barobarga oshgan. Ushbu post 2-toifali bo'lganligi uchun xodimlar va boshqa resurslar yetishmovchiligini yuzaga keltirdi. Bu holat postning dastlabki funksional yo'nalishi va amaldagi yuklama darajasi o'rtasida nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi. Natijada, xizmat ko'rsatish tezligi pasayishi, navbatlarning yuzaga kelishi va nazorat jarayonlarining ortiqcha cho'zilishi kabi muammolar kelib chiqmoqda.

Tadqiqot davomida ushbu post va "Andarxon", "Qarshi-Kerki" AChBPlarining toifalarini ish yuklamasi darajasidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish va ularning toifalarini o'zgartirish taklif etildi.

Shuningdek, AChBPlari boshqaruvi bilan bog'liq boshqa muammolar ham tadqiqot davomida tizimlashtirilgan holda o'rganildi. Ular tashkiliy-strukturaviy muammolar, texnik vositalar bilan bog'liq muammolar va inson resurslari bilan bog'liq muammolardir. Asosiy muammolar boshqaruv jarayonlarining yetarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi bilan bog'liq. Ko'rib chiqilgan muammolar yuzasidan xorijiy ilg'or tajribalarga tayangan holda yechimlar taklif etildi.

AChBP o'tkazuvchanligiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik modellashtirish masalalari ham ushbu bobda tadqiq qilindi. Ko'p omilli ekonometrik modelda qatnashadigan natijaviy omil bo'lib, bojxona chegarasi orqali harakatlangan ya'ni bojxona nazorati va rasmiylashtiruvdan o'tkazilgan transport vositalari soni (Y) hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omillar sifatida postda xizmat ko'rsatadigan xodimlar soni, birlik (X_1), undirilgan bojxona to'lovlari, mln so'm, (X_2), postda aniqlangan huquqbuzarliklar soni, birlik, (X_3), post orqali harakatlangan yo'lovchilar soni, birlik (X_4), postda mavjud inspeksion ko'rik majmualari (IKM) va Z-portallar soni, birlik (X_5) va postdagi transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazish uchun maxsus jihozlangan yo'laklar soni, birlik (X_6) hisoblanadi.

Statistik tahlil qilish uchun ma'lumotlar 2024-yildagi kesimiy (cross-sectional) shaklda baholandi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqotning tasviri statistikasi¹⁵

Variable	Obs	Mean	Std. Dev.	Min	Max
Kunlik avto	32	281.423	292.591	0	972.732
Fuqarolar soni	32	1 285 731.2	2 188 692.7	0	1 149 5171
Huquqbuzarlik soni	32	176.25	383.431	1	1998
Xodimlar soni	32	39.094	28.312	13	104
IKM va Z-portal soni	32	469	621	0	2
Yo'laklar soni	32	3.969	2.682	2	11
Undirilgan to'lov	32	14 060.472	36 341.019	0	165 312.59

1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, ekonometrik modellashtirishda 2024-yilda faoliyat yuritgan jami 32 ta AChBPlari qamrab olingan. Eng ko'pi bilan bir kunda

¹⁵ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

AChBPlari orqali 972 ta transport vositalari harakati qayd etilgan bo'lsa, bojxona nazoratidan o'tkazilgan yo'lovchilar soni bir kunda 1,1 mln nafarga yetgan. Xizmat ko'rsatadigan xodimlar soni 13 nafardan 104 nafargacha taqsimlangan. Tadqiqot davomida ekonometrik modelga kiruvchi omillarni tanlashda omillar o'rtasida bog'lanish zichliklarini aniqlash muhim hisoblanadi.

2-jadvalda keltirilgan Pirson juft korrelyatsiya testi natijalari kunlik avtomobil oqimi (kunlik_avto) va boshqa omillar o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikni ko'rsatadi.

2-jadval

Pirson juft korrelyatsiya testi¹⁶

O'zgaruvchilar	(1)	(2)	(3)	(4)	(5)	(6)
(1) Kunlik_avto	1.000					
(2) Fuqarolar_soni	0.556*	1.000				
	(0.001)					
(3)Huquqbuzarlik	0.547*	0.699*	1.000			
	(0.001)	(0.000)				
(4) Xodimlar soni	0.637*	0.489*	0.528*	1.000		
	(0.000)	(0.004)	(0.002)			
(5) IKM_Z-portal	-0.122	-0.185	-0.178	-0.239	1.000	
	(0.507)	(0.312)	(0.330)	(0.187)		
(6) Yo'laklar soni	-0.240	-0.161	-0.216	-0.114	0.667*	1.000
	(0.186)	(0.379)	(0.236)	(0.535)	(0.000)	
*** $p < 0.01$, ** $p < 0.05$, * $p < 0.1$						

2-jadvalga ko'ra, xodimlar soni ($r = 0,637$, $p = 0,000$) bilan kunlik avto oqimi o'rtasida musbat va statistik jihatdan ahamiyatli bog'liqlik mavjud bo'lib, fuqarolar soni, xodimlar va huquqbuzarlik kabi omillar transport oqimiga kuchli ta'sir etayotganini ko'rsatadi, bu esa siyosiy va boshqaruv choralarda muhim e'tibor talab qiladi.

Tadqiqot davomida Struktural tenglama modeli (SEM) regressiya natijalari orqali AChBP orqali harakatlanadigan kunlik avtomobil oqimiga (kunlik_avto) ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganilgan.

Modelda huquqbuzarlik soni, fuqarolar soni, xodimlar soni, IKM va Z-portal soni hamda yo'laklar soni mustaqil (eksogen) o'zgaruvchilar sifatida kiritilgan.


$$Kunlik_avtoi = \beta_0 + \beta_1 \cdot Huquqbuzarlik_sonii + \beta_2 \cdot Fuqarolar_sonii + \beta_3 \cdot Xodimlar_sonii + \beta_4 \cdot IKM_Zetportali + \beta_5 \cdot Yo'laklar_sonii + \varepsilon_i$$

Natijalarga ko'ra, xodimlar soni (coef. = 5,093; $p = 0,001$) statistik jihatdan ahamiyatli va musbat ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ajralib turadi. Bu shuni anglatadiki, xodimlar soni oshgani sayin, AChBPlaridan o'tuvchi kunlik avto soni ham ortmoqda. Ushbu nuqtayi nazardan kelib chiqib, tadqiqot ishida AChBPlarida xodimlar sonini optimallashtirish taklif etilgan (5-rasm).

Bu model (5-rasm) "kunlik_avto" o'zgaruvchisini bir nechta mustaqil omillar orqali tushuntirishga harakat qiladi. Xodimlar_soni o'zgaruvchisi

¹⁶ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

0,493 koeffitsiyent bilan modelda eng yuqori ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sirga ega ($p = 0,000$).



5-rasm. Standartlashtirilgan SEM model regressiya natijalarining visual grafi¹⁷

Bu shuni anglatadiki, AChBPlaridagi xodimlar soni oshgani sayin, o'rtacha kunlik avtomobil harakati sezilarli darajada ortmoqda. Bu resurslarning samarali taqsimlanishi va tezkor xizmat ko'rsatish darajasini ko'rsatadi.

Mazkur yondashuvning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda AChBPlari faoliyatini optimallashtirishda xodimlar sonini ilmiy asosda belgilash hamda postlar toifalarini ularning real yuklama darajasidan kelib chiqib qayta ko'rib chiqish zarurati ekonometrik jihatdan asoslab berildi.

Ekonometrik tahlil natijalariga asoslanib, "Dout-ota" AChBPda xodimlar soni 2025-yilda 19 %ga oshirildi, bu esa postning o'tkazuvchanlik darajasini va xizmat ko'rsatish samaradorligini yaxshilashga xizmat qildi.

Ushbu yo'nalishda 2025-yil 4-iyun kuni Bojxona qo'mitasi bilan hamkorlikda Toshkent viloyatining "Navoiy" AChBPda tajriba o'tkazildi. Unga ko'ra, qo'shimcha kuch va vositalarni safarbar etilishi natijasida postdagi tirbandlik to'liq bartaraf etildi¹⁸ va jarayonlarga yo'naltirilgan boshqaruv usullarini qo'llash orqali xodimlar sonining oshirilishi postdagi tirbandliklarni kamaytirishi amaliy jihatdan isbotlandi.

Shunday qilib, dissertatsiya ishining mazkur bobida so'nggi yillarda AChBPlarda ish yuklamasining sezilarli darajada oshganini va mavjud resurslar bilan uning mutanosibligi yetarli emasligi ochib berildi. Ekonometrik tahlillar, ayniqsa, xodimlar sonining transport oqimiga statistik jihatdan ahamiyatli va kuchli ta'sirga ega ekanini tasdiqladi. Shu asosda resurslarni, xususan, inson resurslarini optimal taqsimlash hamda postlarni real yuklamaga mos qayta toifalash boshqaruv samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida asoslandi. Amaliy natijalar ham ushbu yondashuv orqali tirbandliklarni kamaytirish va xizmat ko'rsatish tezligini oshirish mumkinligini ko'rsatdi.

¹⁷ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

¹⁸ <https://customs.uz/oz/news/navoiy-chegara-bozhbona-postida-%D1%9Ezbekiston-va-qozogiston-bozhbona-hizmatlari-masullarining-sayyor-uchrashuvi-bolib-otdi>

Shuningdek, AChBPlar faoliyati samaradorligini baholashda asosiy KPilar sifatida transport vositalarini rasmiylashtirish vaqti, o'tkazuvchanlik darajasi, bir xodimga to'g'ri keladigan yuklama va nazorat natijadorligi ko'rsatkichlaridan foydalanildi.

Ikkinchi bobda aniqlangan muammolar, xususan, resurslar taqsimotidagi nomutanosibliklar, transport oqimlarining o'sishi va mavjud boshqaruv mexanizmlarining cheklanganligi AChBPlar faoliyatini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi. Shu sababli uchinchi bobda ushbu muammolarni bartaraf etishga qaratilgan amaliy mexanizmlar va boshqaruv yechimlari ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Tashqi savdoni rivojlantirishda avtomobil chegara bojxona postlari boshqaruvini takomillashtirish yo'llari”** deb nomlanib, unda AChBPlar faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirish yondashuvlari va mexanizmlari ishlab chiqilgan. Xususan, boshqaruv jarayonlarini optimallashtirish, tirbandliklarning oldini olish hamda postlarning o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirishga qaratilgan kompleks choralar tizimi taklif etilgan. Shuningdek, sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari asoslab berilib, prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish istiqbollari ilmiy jihatdan yoritilgan.

Tadqiqot davomida AChBPni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida, avvalo, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, logistika infratuzilmasini kengaytirish hamda transport oqimlarini samarali boshqarish tizimini joriy etish zarurligi asoslab berilgan. Shu bilan birga, bojxona nazoratining zamonaviy shakllarini qo'llash, xavflarni boshqarish tizimini takomillashtirish va inson omilini qisqartirish orqali xizmat ko'rsatish sifatini oshirish mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Dissertatsiyada alohida e'tibor AChBPlari faoliyatini prognozlash masalalariga qaratilgan. Tashqi savdo hajmlarining o'sishi, tranzit yuk oqimlarining kengayishi va transport-logistika tizimining rivojlanishi AChBPlariga tushayotgan yuklamaning ortib borishiga olib kelmoqda. Shu sababli, kelgusida postlar o'tkazuvchanligini oshirish va xizmat ko'rsatish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha aniq prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish zarurligi asoslangan va “Jami avto” (bir yil davomida AChBP orqali bojxona nazoratidan o'tkazilgan jami avtotransport vositalari soni) va “Kunlik avto” (bir kunda o'rtacha AChBPidan o'tgan avtotransport vositalari soni) kabi statistik o'zgaruvchilar asosida O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasining 2018-2024-yillar davomida yig'ilgan rasmiy statistik ma'lumotlardan foydalangan holda 2030-yilgacha qisqa muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Tadqiqotning asosiy usuli sifatida Holtning ikki komponentli silliqashtirish modeli (Holt Linear Trend) tanlandi. Ushbu usul SPSS 29.0 statistik dasturiy platformasi orqali vaqt qatorlari (time series) tahliliga asoslangan holda qo'llanildi. “Jami avto” va “Kunlik avto” o'zgaruvchilari bo'yicha har yillik va kunlik ma'lumotlar asosida vaqtli qatorlar shakllantirildi. Modelga silliqashtirish parametrlari (α) va trend komponenti (β) moslashtirildi.

